

**GARVARD UNIVERSITETIDA SOTSILOGIYANING RIVOJLANISHI****Ortiqova Madina**

O'zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti

Sotsiologiya yo'nalishi 1-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11213069>

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada Garvard universitetiga sotsiologiya yo'nalishining kitob kelishi, rivojlanishi va bunga sabab bolgan omillar haqida so'z yuritiladi.

*Kalit so'zlar:* Garvard universiteti, sotsiologiya fani, Pitirim Sorokin.

**DEVELOPMENT OF SOCIOLOGY AT HARVARD UNIVERSITY**

*Abstract.* This article talks about the arrival, development and factors of sociology at Harvard University.

*Keywords:* Harvard University, sociology, Pitirim Sorokin.

**РАЗВИТИЕ СОЦИОЛОГИИ В ГАРВАРДСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

*Аннотация.* В статье рассказывается о зарождении, развитии и факторах социологии в Гарвардском университете.

*Ключевые слова:* Гарвардский университет, социология, Питирим Сорokin.

**Kirish**

Garvardda sotsiologiyaning rivojlanishini 1930-yildan Pitirim Sorokinning ish boshlashi davridan boshlab ko'rish mumkin. Sorokin Garvardga kelganda, u yerda sotsiologiya bo'limi yo'q edi, lekin yilning oxirida u tashkil etildi, va Sorokinni uning boshqarishga qo'yishdi. Sorokin sotsiologiya nazariyotchisi va 1960-yillargacha o'z asarlarini nashr ettirgan bo'lsada, uning ijodi bugungi kunda hayratlanarli tarzda kam esga olinadi. Uning nazariy qarashlari vaqt sinovlaridan yaxshi o'tmadi. Balki, Sorokinning vaqtinchalik ahamiyati asosan uning Garvard universiteti sotsiologiya bo'limini ochganligi va unga Talkott Parsonsni (u Garvardda iqtisodiyotdan dars berardi) sotsiologiya bo'yicha o'qituvchilikka taklif etganligi bilan izohlanadi. Parsons amerikaliklarni yevropa nazariyotchilari bilan tanishtirib va keyinchalik yirik sotsiologlar sifatida yetishib chiqqan ko'plab talabalarni tarbiyalagan uchun Amerika sotsiologiyasida obro'-e'tiborli shaxsga aylandi.

**Asosiy qism**

Harvard (Garvard) universiteti qo'shma shtatlardagi birinchi oliy o'quv yurtidir. U 1636 yilda Massachusetts ko'rfazi koloniyasi oliy sudi a'zolari tomonidan ovoz berish yo'li bilan tashkil etilgan "yangi kollej" dan o'sdi. O'sha paytda muassasa atigi to'qqiz talaba va bitta o'qituvchidan

iborat edi. Uch yil o'tgach, kollejga birinchi xayriyachi, Charlstaunlik yosh missioner jon Harvard nomi berildi, u kelajakdagi Harvard universitetiga butun kutubxonasini va mol-mulkinging yarmini meros qilib qoldirdi. Jon Garvardning yodgorligi bugun universitet zali qarshisida, mashhur Garvard sudi hududida joylashgan. Bronza jon Garvard, ehtimol, eng mashhur universitet mezonidir.

Bir necha asrlar davomida kichik kollej 20000 ta barcha darajadagi abituriyentlar, shu jumladan bakalavrlar, magistrlar, aspirantlar va professional darajadagi talabalar bilan ulkan muassasaga aylandi. Bugungi kunda Harvard universiteti butun dunyo bo'ylab talabalarga noyob o'qish tajribasi va chinakam global miqyosdagi ta'limni taklif etadi: uning tarkibiga diplom dasturlari bilan 12 ta avtonom fakultet (yoki maktablar) hamda Radkliff ilg'or tadqiqotlar instituti kiradi. Harvard universiteti kutubxonasi dunyodagi eng yirik ilmiy kutubxona bo'lib, uning fondi 18,9 million jildni tashkil etadi. Shuningdek, unda 174000 nomdagi davriy nashrlar, 400 millionga yaqin qo'lyozmalar, 10 millionga yaqin fotosuratlar, 56 million arxiv veb-sahifalari, 5.4 terabayt raqamli materiallar mavjud. Ushbu boy to'plamga kirishni 70 ta filialda mingga yaqin xodim ta'minlaydi. Harvard universiteti arxivi nafaqat eng qadimgi, balki mamlakatdagi eng keng qamrovli universitet ilmiy arxivlaridan biridir.

Taraqqiyotning sinonimi va bugungi kunda kelajak uchun yaratilgan joy deb atash mumkin bo'lgan Harvard universiteti o'zining qadimiy an'analarini himoya qiladi va hurmat qiladi, ularni barcha yangi avlod talabalariga etkazadi. Harvard universiteti saxiy moliyaviy yordam ko'rsatadi-talabalarining 60% dan ortig'i har yili 160 million dollardan ortiq stipendiya yoki boshqa moliyaviy yordam oladi, bu butun dunyodagi iqtidorli odamlarga dunyodagi eng yaxshi ta'lim olish, ilg'or tadqiqotlar, noyob amaliyot dasturlarida qatnashish imkonini beradi. Bugungi kunda Harvardning 360 mingdan ortiq bitiruvchilari Qo'shma shtatlarda va 190 mingga yaqin boshqa mamlakatlarda yashaydilar.

Pitirim Aleksandrovich Sorokin 1889-yil 21-yanvarda Vologda guberniyasining Turya yarensk uezdida tug'ildi. Otasi uni cherkovda cho'qintirgach, yepiskop Pitirim sharafiga ismini Pitirim deb qo'ydi. Otasi, Aleksandr Prokopevich duradgor bo'lib, cherkovni qayta ta'mirlash ishlarida qatnashardi. Onasi, Pelagiya Vasievna dehqonlar avlodidan edi. Pitirim oilada o'rtancha farzand bo'gani uchun 1902- yilda Gamsk ikki yillik maktabiga o'qishga kiradi. Maktabni a'lo baholar bilan tugatib, Kostroma guberniyasida joylashgan Xrenovsk cherkor- o'qituvchilar maktabiga yollanma oladi. O'n besh yoshida Pitirim Sorokin faol revolyutsioner sifatida eserlar partiyasiga a'zo boladi. 1906-yilda ijtimoiy-siyosiy faoliyati uchun qamoqqa olindi. Uning dunyoqarashida keskin burilishlar bo'la bordi. Diniy aqidaparstlik, yarim taqvodorlik, hatto rus pravoslav teologiyasidan voz kechib, tabiiy-ilmiy falsafiy ilmiy-evolyutsion nazariyaga qiziqishi

kuchaydi. Sotsialistik va demokratik g'oyalarga qiziqdi. U ko'proq integral va idealistik «yo'nalishlarga, jumladan, «individualizm uchun kurash», «yashash uchun kurash» noiqtidosiy omillar kabi sotsial jarayonlar determinatsiyasi va odam hulqi kabi masalalarga katta e'tibor berdi.

Sorokinning ilm-fandagi novatorligi, nazariy va maxsus sotsiologiya sohasidagi pionerligi, ko'pgina yangi tushuncha, kategoriyalarni yaratganligi Amerika ilmiy jamoatchiligi orasida katta obro' keltirdi. 1930-yildaunga bo'Mgan ishonchsizlik, hatto dushmanlik kayfiyati ham batamom barham topdi. Bu ishonchni dunyoga mashhur Garvard universitetida ochilgan sotsiologiya fakultetiga dekanlikka taklif qilinishining o'zida ko'rish mumkin. Dastlab bu taklifni qabul qilmadi. Keyinchalik rozi bo'Mdi va bu lavozimda 1930-yildan 1959- yilgacha qariyb 30-yil samarali mehnat qildi. Sorokin ajoyib notiq edi. Uning har bir jumlasida kuchli mantiq sezilib turardi. Sorokinning zo'rpedagogbo'lganligito'g' risidako'plabesdaliklar yozilgan. U juda qobiliyatli notiq edi. Lekin u ruscha talaffuzda gapirishini esdan chiqarmasdi. Sorokin auditoriyada kirganda talabalar uning ina'ruza-suhbatini nihoyatda qiziqib tinglashardi, go'yo o'zlarini sehrlangandek sezardilar. O'z m a'ruzalarida muholiflarini keskin tanqid qilardi.

Dekanlik davrida tashkilotchi 1 ikni ilmiy faoiyati bilan isbotladi.

P.Sorokin qancha sotsiolog bo'lsa shuncha sotsiologiya boladi, degan fikrida katta ma'no bor edi. Bu fikrini o'z shogirdlari timsolida ham ko'rdi, sinadi. Hayotining sO'nggi yillarida yozgan «Zamonamiz sotsiologik nazariyalari» asari ham katta shuhrat qozondi. Bu asariga u mantiqiy jihatdan yondashib, zamonaviy sotsiologik fikrlar rivojlanishini tahlil qildi, struktual va dinamik sotsiologiyada integral tizimni qo'lash kerakligini yana bir bor isbotlab berdi. 90 Uning Amerika sotsiologiyasidagi obro'si shubhasiz katta edi. Buni 1964-yil 75 yoshida uni Amerika Sotsiologlar Assotsiatsiyasining raisi etib saylaganliklarida ham ko'rish mumkin. P.Sorokin bu sharaflil va faxriy lavozimda ekanligida sotsiologiya rivojlanishiga juda katta e'tibor berdi. U «zamonaviy sotsiologiya, albatta, o'zining ijodiy qaddini ko'taradi va ulug' sintez yo'liga yangi qadamlarini qo'yadi» deb, umuman, sotsiologiya rivojlanishini yangi davri boshlanajagani bashorat qildi. Asrning o'rtalarida Amerikada hukumatga qarshi chiqishlar, radikal studentlarning faol harakatlari avjga chiqqan paytda Pitirim Sorokin bu voqealardan chetda qolmadi. U AQSh hukumatining Vetnam urushidagi, ishtirokini ochiq tanqid qildi. Keksalik yillarida hech ham haqiqat, adolat yo'lidan chekinmadi. Pitirim Sorokin hayotining oxirgi ikki yili og'ir kasallik bilan o'tdi. U 1968-yil 11-fevralda Kembrij yaqinidagi, Vinchesterdagi uyida vafot etadi.

Pitirim Sorokinning ijodida uning dunyoqarashi va nazasoslarini tashkil etuvchi jihatlariga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Sorokin nazariy qarashlarining shakllanishiga Mixaylovskiy, Lavrov, de Roberti, Petrajidskiy, Kovalevskiy, Rostovsev, Pavlov, Tolstoy, Dostoevskiy va Jakov, Chernov, Kropotkinlar kabi olimlarning nazariyalari ta'siri kuchli bo'lgan.

Shuningdek, Kovalevskiyning shaxsiy kotibi bo'la turib Sorokin atoqli G'arb sotsiologlaridan Geksl, Tard, Dyurkgeym, Spenser, Bergson, Teylor, Fyustel de Kulanj, Vanderveld, Verxam, Marks kabilarning g'oyalari bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'lgan.

Bundan tashqari, u Darvin, 368 Gegel, Kontning, keyinchalik esa Zimmelning asarlari bilan tanishib chiqqan. Shuningdek, o'sha davrdagi Rossiyadagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatni ham hisobga olish zarurki, birinchi rus inqilobi, jahon urushi va shu kabi jarayonlar ham Sorokin dunyoqarashi va nuqtai nazari shakllanishiga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmagan. Bu hamma shartsharoitlari birgalikda Sorokinning rus ijodi davridagi ishlarining ham, shuningdek, Amerika davridagi ko'plab ishlari yo'nalishini ham belgilab bergan. Bundan tashqari, A.Yu.Sogomonov, I.A.Golosenko, V.V.Kozlovskiy kabi olimlar ta'kidlashicha, Pitirim Sorokin ijodini Rossiya va Amerika davrlariga ajratishning o'zi maqsadga muvofiq emas, chunki «...uning ilmiy ijodi u boshidan o'tkazgan keskin o'zgarishlarga qaramay yagona, yaxlitdir».1 Bunday pozitsiyaga Sorokin sotsiologik bilimlari strukturasi uzoq yillar davomida o'zgarmaganligini asos qilib olish mumkin.

### **Xulosa**

Garvard universitetida sotsiologiyaning rivojlanishigakatta hissa qo'shgan shaxslardan biri bu Pitirim Sorokin bo'lib uning ish boshlash davrini 1930-yildan ko'rishimiz mumkin.

Uning Garvardda sotsiologiya bo'limini ochishi hamda T.Parsonsn sotsiologiya bo'yicha o'qituvchilikka taklif etkanligi ularni nafaqat yaqinlashtirdi keyinchalik esa o'rtalarida nizo kelibchiqishiga ham sababchi bo'ldi.Chunki ularningqilayotgan nazariyalari juda o'xshash edi.

Nazariyalar xususiyatlari o'xshash bo'lsada, Parsons ishlari e'tiborga tushgan edi. Sorokin Parsons ishlab chiqqan nazariyalarni o'g'irlangan deya tanqid ostiga olgandi. Ularning bunday ziddiyati O.Kont va Sensimon o'rtasida ham bo'lgan edi

### **REFERENCES**

1. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Sotsiologiya>
2. [http://fayllar.org/pars\\_docs/refs/1733/1732695/1732695.pdf](http://fayllar.org/pars_docs/refs/1733/1732695/1732695.pdf)
3. <https://staff.tiame.uz/storage/users/426/presentations/BUt333cXpqxmXr4u3QRvyAIfyM Bih3xzkkBTnLM.pdf>
4. <https://grantlar.uz/category/sotsiologiya/>
5. Sherbutayevna J. G. YOSHLAR IJTIMOIIY FAOLLIGI DAVLAT SIYOSATINING USTUVOR YO 'NALISHI SIFATIDA //ZAMONAVIIY DUNYONING IJTIMOIIY MANZARASI VA JAMIYAT TUZILMALARI TRANSFORMATSIYASI. – 2024. – T. 1. – №. 1.